

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.
Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

X.Mamajonov

Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar 113

ADABIYOTSHUNOSLIK

X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova

Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari 118

A.Abduraxmonov

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati 122

B.To'rayeva

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari 127

N.Karimova

Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi 134

P.Ro'ziboyeva, B.Karimov

Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi 138

N.Avazov

"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi..... 143

Sh.Axmedova

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari..... 151

N.Soatova

Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati 155

Sh.Turg'unov

Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida 162

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, F.Musayeva

Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir..... 168

D.Ganiyeva

Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi..... 171

Sh.Amonturdiyeva

Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari..... 176

N.Xoshimova

Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi..... 184

M.Hojiyeva

Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida..... 187

V.Giyosova

Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar 190

S.Ahmadaliyeva

Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida..... 193

H.Saipova

Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari 197

MATEMATIKA

T.Ergashev, D.Urinboyeva

Ikkinchi tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida..... 201

B.Kadirkulov, M.Jalilov

Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo'yilgan teskari masala 209

N.Murolimova

Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala..... 214

FIZIKA - TEXNIKA

X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov

Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish 223

M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishni pedagogik-psixologik imkoniyatlari..... 228

**AMIR TEMUR HAMDA TO‘XTAMISHXON O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK
MUNOSABATLARNING MANBASHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM FIKR-MULOHAZALAR**

**SOME OPINIONS ON THE ORIGIN OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN AMIR
TEMUR AND TOKHTAMISHKHAN**

**НЕКОТОРЫЕ МНЕНИЯ О ПРОИСХОЖДЕНИИ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ
МЕЖДУ АМИРОМ ТЕМУРОМ И ТОХТАМИШХАНОМ**

Мамажонов Хумойун Хомиджон о‘g‘li¹

¹Мамажонов Хумойун Хомиджон о‘g‘li – Farg‘ona davlat universiteti tarix fakulteti
O‘zbekiston tarixi kafedrası o‘qıtuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur hamda Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon o‘rtasida olib borilgan diplomatik munosabatlarining manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek ikki hukmdor o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar manbashunosligi qiyosiy tahlili hamda manbalardagi ma‘lumotlarga tayangan holda diplomatik munosabatlarning vujudga kelish sabablari va omillari to‘g‘risida ilmiy xulosalalar berilgan.

Аннотация

В данной статье представлены некоторые мнения об источниках дипломатических отношений между Амиром Темуrom и Тохтамыш-ханом, правителем Золотой Орды. Также дается сравнительный анализ источников дипломатических отношений между двумя правителями и научные выводы о причинах и факторах возникновения дипломатических отношений на основе информации в источниках.

Abstract

This article discusses some opinions about the sources of the investigation of the relationship between Amir Temur and Tokhtamysh Khan, the ruler of the Golden Horde. A comparative analysis of the identified relationships between external rights and the identification of the identified causes and the identification of the identified relationships based on the information in the source is also given.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, DiplomatiK munosabatlar, Oltin O‘rda, “Zafarnoma”, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, elchi.

Ключевые слова: Амир Темур, Дипломатические отношения, Золотая Орда, «Зафарнама», «Мунтахаб ут-таварихи Муиний», посол.

Key words: Amir Temur, Diplomatic relations, Golden Horde, "Zafarnama", "Muntakhab ut-tawarikhı Muiniy", ambassador.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda jahon mamlakatlari bilan tengma-teng va do‘stona aloqalar olib borayotgan mustaqil davlat sifatida dunyoga bo‘y ko‘rsatmoqda. O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston BMT ga a‘zo bo‘ldi va ko‘plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlarida O‘zbekiston elchixonalari va konsullik idoralari o‘z faoliyatlarini olib bormoqda. Shuningdek, Poytaxtimiz – Toshkent shahrida juda ko‘plab davlatlarning elchixona va konsullik idoralari o‘z faoliyatlarini olib bormoqda. Bularning barchasi O‘zbekiston jahon bo‘ylab keng diplomatik aloqalar va yahshi qo‘shnichilik munosabatlari olib borayotganligini ko‘rsatib turibdi. O‘zbekiston dunyoning barcha qit‘alaridagi davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. Tarix faniga oid tadqiqotlarni amalga oshirishda manbalar muhim o‘rin tutadi. Xususan tadqiqotda ilgari surilgan fikr va mulohazalarning ishonchiligi ko‘p jihatdan tarixiy manbalarda keltirilgan ma‘lumotlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan tarixiy manbalar olib borilgan tadqiqotlarning poydevori hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida mamlakatimiz va xorijiy tarixshunos olimlari B.Ahmedov, B. Usmonov, M.Abduraimov, A. Muhammadjonov, A.Ziyo, Sh.O‘ljayeva, U.Abdullayev, O.Bo‘riyev, E.Azimov, X.Dadaboyev, A.YU.Yakubovskiy, I.M.Mirgaliyev va boshqa zamonaviy tadqiqotchilarning nazariyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolani yozishda tarixiy

tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, tizimlilik, xolislik va determinizm kabi usullaridan foydalanildi. Xususan, ishda qiyosiy tarxiy, analiz, sintez, retrospektiv kabi umumfalsafiy metodlar qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Amir Temur va temuriylar davri tarixi bo'yicha qimmatli manbalardan biri Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari hisoblanadi.[1] "Zafarnoma" tarixiy asar sifatida XIV va XV asr boshlarida Temur va temuriylar hukmronligi davridagi O'rta Osiyo, Oltin O'rda xonligi, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Misr, Turkiya tarixiga doir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Asar muqaddimasida Amir Temur tarix sahnasiga chiqqan 1360-yilga qadar O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan chingiziy hukmdorlar haqida ham qisqacha ma'lumot berilgan. So'ngra Amir Temurning XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida qilgan yurishlarining batafsil bayoni keltirilgan. Asar 1404-yil mart oyida Amir Temur Ozarbayjonda Arzon Qorabog'ida turganligining bayoni bilan yakunlanib, uning vafotigacha, ya'ni bir yilcha vaqt ichida sodir bo'lgan voqealar yoritilmay qolgan.

Shomiyning "Zafarnoma" asarida tadqiqotimiz uchun muhim bo'lgan Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi munosabatlar, ular o'rtasidagi diplomatik aloqalar va harbiy to'qnashuvlar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan. Shuningdek ushbu asarda To'xtamishxonning dastlab Amir Temur huzuriga kelgani borasidagi ma'lumotlar mufassal tasvirlangan: "To'qtamish o'g'lon unga yovuzlik qilish tadorikida bo'lgan bir jamoadan qo'rqib, Amir Sohibqiron dargohiga kelayotgani haqida xabar yetkazdilar. Bu xabar tog'riligi aniqlangach, atoqli amirlardan Tumon Temurni unga peshvoz chiqish uchun yubordi. O'z zoti muboragi ham Uynog'dan qaytib O'zgandga kelib tushdi va undan Samarqandga jo'nadi. To'qtamish o'g'lon yetib kelgach, amirlar vositachilik qilib uni a'lo hazrat (oldiga) olib kirdilar. Amir Sohibqiron hazratlari uni e'zozu ikrom qilish vazifasini eng baland darajada ado etmoq uchun imkon boricha harakat qildi. Uningdek podshohzodaga hurmat saqlash borasida o'zidek janobdan nimaiki lozim bo'lsa barchasini bajo keltirdi. So'ngra u bilan hamjihatlikda Samarqand shahriga qaytdi va podshohona to'ylar berib, munosib peshkashlar tayyorladi, chodiru o'tov, nog'arayu bayroq, askaru sipohiylardan tortib unga va tobelariga shuq qadar ko'p tortiq qildiki, ularning haddu sanog'iga yetishdan aql ojiz edi."

Shuningdek "Zafarnoma"da Amir Temur To'xtamishni Oq O'rda taxtiga o'tqazish uchun uni to'rt marotaba qo'shin bilan ta'minlab, unga homiylik qilgani borasidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bu masala bo'yicha hatto Oq O'rda hukmdori O'rusxon bilan ziddiyatga borganligi to'g'risidagi faktlarni uchratish mumkin.

Manbada Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanib borish dinamikasi ham batafsil bayon etilgan. Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi va ular o'rtasida bo'lib o'tgan 3 ta muhoraba bayonini ko'rishimiz mumkin.

Bizning tadqiqotimiz uchun muhim bo'lgan Amir Temur va Oltin O'rda hukmdori To'xtamish o'rtasidagi diplomatik aloqalar borasida qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan. Sohibqiron 1391-yilda To'xtamishxon ustiga lashkar tortib borayotib, Qorasomon degan joyga yetganida To'xtamishxon tarafidan elchi kelganligi ma'lum. Ushbu elchi keltirgan maktub bayoni "Zafarnoma"da keltirilgan: "Amir Sohibqiron menga otalik maqomidadurlar, ul zotning menga bo'lgan huquqi haddu hisobsiz va har qancha bayondan ortiqdur. Iltimosim shulki, men o'z baxtsizligim va past kishilarning buzg'unchiliklari tufayli yo'l qo'yganim bu noloyiq harakatim va noo'rin muxolifatim gunohini kechirib, xatolarim daftari ustidan afv qalamini tortgaylar."

"Zafarnoma" keltirilgan ma'lumotlar Sohibqiron va To'xtamish o'rtasidagi munosabatlar va diplomatik aloqalarni tadqiq etishda juda muhim o'rin tutadi. Amir Temur To'xtamishga qarshi so'nggi 1395-yildagi yurishidan avval elchi yuboradi. Xususan bu elchilik haqida "Zafarnoma"da shunday deyiladi: "To'qtamish podshoh lashkari tomonidan bir necha navbat noloyiq harakatlar sodir bo'lganligi tufayli Amir Sohibqiron o'z oliy himmatini ularni daf etishga qaratadi va Shamsiddin Olmaliqiyini elchilikka yuboradi. U ish ko'rgan va aqlli, xushyor, donishmand bir kishi erdi. U borib shirinsuxanlik bilan ko'ngilga yoqar gaplarni aytib, so'zning ulanish-u rivojiga rioya qilgan holda maqsadni ado etdi. Uning so'zlari podshoh va amirlar qalbiga g'oyatda ta'sir ko'rsatib, To'qtamishxon sulh-u safoga moyil bo'ldi va Shamsiddin Almoliqiyini siylab, hurmat bilan qaytardi." Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari Temuriylar tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Muiniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asari ham Temuriylar diplomatiyasi tarixi bo'yicha eng qimmatli manbalaridan biridir. Muiniddin Natanziy o'z asarini hijriy 816-yilda

TARIX

yoziq tugatgan va dastlab o'sha paytdagi Fors viloyati hukmdori Amir Temurning nabirasi Sulton Iskandar ibn Mirzo Umarshayxga bag'ishlagan. "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" ning qo'lyozma nusxalari haqidagi dastlabki ma'lumotlar ilmiy kataloglarda XIX asrning so'nggi choragida paydo bo'ldi.

"Muntaxab ut-tavorixi Muiniy"da eng qadimgi davrlardan to Amir Temur vafotigacha bir qator o'lkalarda yuz bergan voqealar qisqacha bayon etilgan. Ko'p hollarda muallif har bir sulola tarixiga alohida bob bag'ishlangan. Asarning, ayniqsa, so'nggi qismlari Markaziy Osiyo tarixini o'rganish uchun muhim ahamiyatga egadir. Mazkur qismlarda Amir Temur yashagan va hukmronlik qilgan davrda yuz bergan tarixiy voqealar bir muncha mufassal bayon qilingan. Ushbu davr tarixini muallif o'zi to'plagan materiallar asosida yozgan. Amir Temur zamonasidagi voqeahodisalar Natanziyga yaxshi ma'lum bo'lib, shuningdek, saroy solnomalaridan foydalanish, mashhur tarixiy voqealarning hali hayot bo'lgan ishtirokchilaridan o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni so'rab-surishtirib olish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ba'zi o'rinlarda shohidlardan eshitib yozganiga muallifning o'zi ishora beradi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatilib o'tilgan "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy"dagi xronologik chalkashliklar ham, nazarimizda, Natanziy og'zaki ma'lumotlardan ko'p foydalanganligi tufaylidir.

"Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" ning temuriylar davri tarixnavisligida tutgan o'rni va ahamiyatini belgilovchi asosiy jihatlardan biri uning Amir Temur davlati tarixini to'la qamrab olish maqsad qilingan ilk manba, ya'ni Nizomiddin Shomiyning 1404-yilda yozilgan "Zafarnoma" asaridan mustaqil tarzda yaratilganligidir. Garchand, Muiniddin Natanziy Amir Temur davri tarixini Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarga nisbatan qisqaroq tarzda yoritgan bo'lsa-da, uning asarida mazkur muarrixlar bayonini to'latadigan va boyitadigan jihatlari bisyor. "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy"da Amir Temurning yoshligi kechgan davr, ya'ni XIV asrning 40-50- yillari tarixi boshqa o'sha davr manbalariga nisbatan kengroq yoritilgan. Ayni shu davrda Movarounnahrda bir qancha muhim siyosiy voqealar yuz berib, ular yosh Temurning dunyoqarashi va siyosiy ongi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgani shubhasizdir. "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy"ning manba sifatidagi qimmatli jihatlardan yana biri shuki, unda Amir Temurning harbiy dahosi va lashkarning jangavorligi haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ba'zi muhim ma'lumotlar bayon qilingan.

Natanziyning ushbu asarida Amir Temur va To'xtamish munosabatlariga doir ma'lumotlar uchraydi: "O'n yetti yil xonlik taxtida shundan so'ng Sultoni g'oziy ne'matiga nisbatan isyon va ko'namakligi uchun halokatli zarbalarga duchor bo'lib, xonumonidan ajradi va oqibatda hijriy 807-yilda Tulas hududida Idiku tarafidan o'ldirildi. To'xtamish mag'lub etilgach, hazrat Sultoni g'oziy ortga qaytdi. Davlat dargohidan panoh topib yurgan Temurqutlug' ibn Temurbekxon va Idiku ibn Boltichaq hazratdan ajralib, o'zbek ulusi tama'ida qaytib ketdilar. Ular kelishidan ilgari Chintak o'g'lon o'ymoqlar qochoqlarni yig'ib, o'zbek ulusiga podshohlik tamai bilan o'z dimog'ini xush etmoqda edi. Temur Qutlug' o'g'lon kelgani xabari yetkach, barcha ellar ahdu paymonlaridam qaytdilar va Chintak o'g'lon xos kishilari bilan qochib ketdi. Saltanat Temurqutlug' va amirlik Idikuning ixtiyoriga o'tdi."

Muiniddin Natanziyda ham Amir Temurning Oltin O'rdaga 1395-yilda olib borgan harbiy yurishidan avval Shamsiddin Olmaliy boshchiligida elchi yuborganligi haqida ma'lumotlar bor: "Avval boshda Shamsiddin Olmalig'iyini elchi qilib jo'natib, dushmanlikning xatarli oqibatlaridan ogohlantirib tanbeh berdi va o'zining (To'xtamish oldidagi) sobiq haqqini eslatdi. To'xtamish nard taxtasiga makr-hiyla va g'irromlik toshini otib, muhoraba rejasini tuzdi. Shamsiddinga To'xtamish davlatining yorug' kunduzi kulfat tuniga mubaddal bo'lgani ayon bo'lgach, xo'rsinib qo'ydi va ruxsat olishi bilanoq orqaga qaytdi. Sulton Sohibqiron bob ul-avbob Darbanddan ushbu hol asnosida harakat huzuriga kelayotgan To'xtamish elchisi lashkar qarosining cheksizligini ko'rib, hatto muloqot qilmasdan yo'lini orqaga burib qochdi". Natanziyning ushbu asari nafaqat bizning yurtimiz, balki qo'shni mintaqalar va Oltin O'rda tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek Muiniddin Natanziy Nizomiddin Shomiydan farqli ravishda To'xtamishxonning 1404-yilda Idigu tomonidan o'ldirilganligini ta'kidlab o'tadi.

Ibn Arabshohning "Ajoib al – maqdur fi tarixi Taymur" asari ham tadqiqotimiz uchun muhim manbalardan hisoblanadi. Ibn Arabshohning ilmiy jamoatchilikka azaldan ma'lum bo'lgan ushbu tarixiy-badiiy asari Temurning hayoti va faoliyati hamda XIV asrning oxiri, XV asrning birinchi yarmida sodir bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Mazkur asar Temur va uning siyosatiga tanqidiy

munosabatda yozilganligi bilan shu xildagi boshqa manbalardan alohida ajralib turadi. Darvoqe muallifning shaxsiy hayotiga nazar tashlansa, bu ahvol boisi muayyan darajada ravshanlashadi. Dastlab 1401-yilda 12 yoshli Ibn Arabshoh o'z ona yurti Damashqning Temur qo'shinlari tomonidan ayovsiz vayron qilinib, xarobaga aylantirilganligining shohidi bo'lgan, so'ngra onasi va birodarlari bilan birga Samarqandga tutqun sifatida zo'rma-zo'raki olib ketilishi uning dilida alamli dog' qoldirgan. Samarqanddan ketgach, Xorazm, Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, Saroy, Astraxan, Turkiya kabi Temur qo'shinlari tomonidan birma-bir zabt etilib, bosib olingan mamlakatlar va shaharlardagi xarobalarni o'z ko'zi bilan ko'rib, mahalliy aholidan bu xususda xilma-xil fikrlar va rivoyatlarni eshitgan tarixchining bu tarzda hikoya qilishini tabiiy hol deb hisoblamoq lozim. O'z davrining yetuk va o'qimishli kishisi sifatida muallifning o'z ko'rganlari va eshitganlari asosida tanqidiy ruhda yozilgan hamda o'sha davrning turli tomonlariga oid ko'pgina faktik ma'lumotlarni jamlagan bu asari, bir tomondan Temur shaxsi va faoliyatini madhiyali tarzda yoritgan boshqa asarlardan ma'lum darajada ajralib tursa, ikkinchi tomondan, unda muallifning shaxsiy adovati va badiiy bezakka berilib ketishi tufayli ba'zan chalkash faktlar, taxminiy talqin qilingan hollarning uchrashi mazkur asarga g'oyatda tanqidiy ruhda yondashish zarurligini taqazo etadi.

Ibn Arabshoh o'z asarida Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi munosabatlarning buzilish sababini ham ochiqlashga harakat qiladi: "Dasht va tatar sultoni To'xtamishxon Temur bilan Sulton Husayn o'rtasidagi mojaroni ko'rgach, qoni qaynab, g'ayirligi keldi. Bu ularning nasabi va qo'shnichiligi sababidan edi. U ko'p sonli askar, dengizdek hayqirgan qo'shin to'pladi hamda Sig'noq va O'tror tarafidan Temur qarorgohi tomon yo'l oladi."

Lekin bu ma'lumotlarni to'g'ri deb qabul qilib bo'lmaydi. Ibn Arabshohga ko'ra Amir Temur bilan To'xtamish o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga Sohibqironning Sulton Husaynga qarshi urushi sabab bo'lgan. Vaholanki bu urush 1370-yilda sodir bo'lgan. Amir Temur bilan To'xtamish o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi esa taxminan 1385-yildan so'ng boshlanandi.

Ibn Arabshoh 1395-yilda bo'lib o'tgan muhorabada To'xtamishxonning mag'lubiyati sababini ko'rsatishga harakat qiladi. Ibn Arabshohga ko'ra To'xtamishxonning mag'lubiyatiga, uning armiyasining o'ng qanot boshliqlaridan biri xun davosi bilan boshqa bir amirni talab qilishi sabab bo'lganligini ko'rsatadi. Bu asardagi ma'lumotlarni chuqur mulohazaga moyil bo'lganligi uchun bu sababni to'g'ri deb qabul qilish biroz noo'rin bo'ladi.

Shuningdek, Temur va Oltin O'rda hukmdori To'xtamish o'rtasidagi 1391-yilning yozida, Uralning g'arbida, Qunduzcha degan mavzeda yuz bergan jangni Ibn Arabshoh Xo'jand yaqinida, Turkiston atroflarida bo'ldi deb chalkashliklarga yo'l qo'yib, Temur Sayyid Barakaning yordamida g'alaba qozongani haqidagi rivoyatni keltiradi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari ham tadqiqotimizdagi muhim manbalardan hisoblanadi. Sharafiddin Ali Yazdiy ushbu asarni taxminan 1424-1425-yillar oralig'ida yozib tugatgan. Yazdiyning ushbu asarida tadqiqotimiz uchun muhim bo'lgan faktlar keltirilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida To'xtamishxonning Amir Temur huzuriga kelishi bayoni berilgan: "Xazrat Sohibqiron muborak nafasi bilan Qo'chqor mavzesig'acha bordi va u yerda eshittikim, To'qtamish o'g'lon O'rusxondan qo'rqub, qochib xizmatga kelgusi turur. Xazrat Sohibqiron Tumanbek o'zbek beklaridan erdi, o'tuv yubordi va buyurdikim, oni izzat va hurmat bilan keltirgaylar. O'zi saodat bilan Yabag'u yo'lidan qaytib, O'zgandda tushti va andin ko'chub Samarqand sori borib turdi. Tumanbek To'qtamish o'g'lonni kelturdi va beklar barcha anga o'turib borib, Sohibqiron qoshig'a kelturdilar. Ul hazrat oning maq dovini aziz tutib, ta'azzum va inoyatlar qildi va to'y berib, hayma-hirgoh va naqqora va nafiz va qator tevalar va otlar va yana nimakim, podshohlig'ida kerak turur, barchani yasab berdi va oni o'g'ul o'qudi."

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Amir Temur tarixiga bag'ishlangan asarlarning eng haqiqatga yaqini va eng mukammali hisoblanadi. Shuning uchun ham asar yozilganidan beri o'tgan vaqt davomida qayta-qayta ko'chirilgan, turli sharq va g'arb tillariga ham to'la, ham qisman tarjima qilingan va bir necha marta nashr etilgan.

"Zafarnoma"da Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi diplomatik aloqalarga doir muhim ma'lumotlar keltirilgan: "... Qaro Somon mavzesida kelib tushdilar. Beklar elchilarni yaxshi yerda tushunib, mehmondorliq qildilar va yamg'ur jihatidan necha kun anda turdilar. To'qtamishxon elchi yibarganini hazrat eshitti, farmon qildikim, "Kelgan elchilarni kelturing!". Beklar elchilarni kelturdilar

TARIX

va To'qtamishxon yibargan to'qqiz lochin va bir shunqorni torttilar. Xazrat ul shunqorni elikiga olib birovga berdi va elchilar yukunib, To'qtamishxonning so'zuni uzz tillari bila arzadasht qildilar va dedilarkim, "To'qtamish aytadurkim, Ul Hazrat mening bilan ato-og'uldek erdi va valine'mat turur. Va bu shafqatlarkim, mening haqqimda alar qilib tururlar, xech ato o'g'ulga qilmas. Agar yillar shukur desam xanuz aytmamish bo'lg'ayman, mendan xabarsiz bir necha yamon badbaxtlar beadabliq qilgan turur va ul voqialardin yo'q turur erdi. Emdi umid ultururkim, ul hazrat lutfu karam bila bu yaruqlardin kechib, afv qilg'aylar"

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Nizomiddin Shomiy hamda Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari, Muiniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asarlari Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi diplomatik aloqalarni tahlil qilishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. "Zafarnoma"ni nafaqat O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, balki Amir Temur faoliyati bilan bog'liq hududlarning tarixini o'rganishda juda muhim va kerakli manba hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4749-сонли фармони. Тошкент шаҳри, 2017 йил 7 февраль. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. / Нашрга тайёрловчилар М.Бекмуродов, Қ.Қуронбоев, Л.Тангриев. – Т.: ФафурҒулом, 2017. Б. 38-77.
2. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. Махсул муҳаррир А.Ўринбоев. -Т.: Мехнат, 1992. 1-к. - 328, 2-к. -192 б.
3. Низомиддин Шомий. Зафарнома/Форс тилидан ўғирувчи – Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масхул муҳаррир – А. Ўринбоев. Изоҳлар ва лъятларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (журрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники). Ҳофизи Абрунинг «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и – («Илова»)ни форсийдан ўғирувчи ва изоҳларни тузувчи – О. Бўриев. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 528 б.
4. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Мовароуннаҳр воқеалари. 1360-1370. /Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Омонулло Бўриев. Масхул муҳаррир, сўз боши муаллифи ва нашрга тайёрловчи Асомиддин Ўринбоев. -Т.: Камалак, 1994.- 288 б.
5. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. /Сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков-Т.: Шарқ, 1997. - 384 б.
6. Амир Темур жаҳон тарихида.-Т.: Шарқ, 1996. - 295 б.
7. Аҳмедов Б. Амир Темур. -Т.:Мерос, 1995. - 640 б.
8. Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: Ўзбекистон, 1996.- 368 б.
9. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур. – Т.: Нур, 1996.
10. Усмонов Б. Амир Темур давлати. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Адабиёт учкунлари, 2016. – 126 б.
11. Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси – Т.: IJOD PRESS, – 156 б..
12. Якубовский А.Ю. Падение Золотой Орды. В кн.: Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. – М. – Л., 1950, – С. 216-428.
13. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. -Т.: Фан, 1993. - 56 б.
14. Усмонов Б.А. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVIII-XX асрлар): Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 б.